



KITOB RAQAMI: 8007246

TIP: 033

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

# TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Test topshiriqlari kitobi raqami						
8	0	0	7	2	4	6
1	1	1	1	1	1	1
2	2	2	2	2	2	2
3	3	3	3	3	3	3
4	4	4	4	4	4	4
5	5	5	5	5	5	5
6	6	6	6	6	6	6
7	7	7	7	7	7	7
8	8	8	8	8	8	8
9	9	9	9	9	9	9
0	0	0	0	0	0	0

1-30 topshiriqlar

*Majburiy fanlar*

31-60 topshiriqlar

*Biologiya*

61-90 topshiriqlar

*Kimyo*

## ABITURIYENT DIQQATIGA!

- Har bir majburiy fandan 10 tadan, mutaxassislik fanlaridan 30 tadan test topshirig‘i **mavjudligini tekshiring**.
- Nuqsonlar aniqlanganda **darhol** guruh nazoratchisiga **ma‘lum qiling**.
- Ushbu kitob raqamini javoblar varaqasiga **ko‘chiring**.
- Kitob muqovasiga o‘zingiz haqingizdagi **ma‘lumotlarni yozing va imzo qo‘ying**.
- Ushbu kitob guruh nazoratchisiga **topshirilishi shart**.

Familiyangiz: \_\_\_\_\_

Ismingiz: \_\_\_\_\_

Otangizning ismi: \_\_\_\_\_

.....  
Imzo

**Yuqoridagi ma‘lumotlar qayd etilmagan yoki kitobga shikast yetkazilgan hollarda e‘tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.**

## MAJBURIY FANLAR

## ONA TILI

1. Chiziqcha bilan yoziladigan soʻzlar qatorini belgilang.

- A) kam//hosil, radio//toʻlqin  
 B) ola//qargʻa, tamom//boʻl  
 C) otash//qalb, har//vaqt  
 D) koʻcha//koʻy, oyma//oy

2. Quyidagi gapda koʻp nuqta oʻrniga qaysi soʻzni qoʻyish uslubiy jihatdan toʻgʻri hisoblanadi?

*Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda koʻplab chiroyli bogʻlar ...*

- A) farovon qilindi B) yasaldi  
 C) taxtlab chiqildi D) barpo qilindi

3. *Biz... birov... uyi... mehmon kelsa, yon qoʻshnisi, albatta, un... xabar oladi.*

Ushbu gapda nuqtalar oʻrnida qaysi kelishik qoʻshimchasini qoʻllab boʻlmaydi?

- A) joʻnalish B) oʻrin-payt C) tushum  
 D) chiqish

4. Qaysi gapda qoʻshimcha qoʻshilishi bilan bogʻliq imloviy xatolik mavjud?

- A) *Bu gapni hammaga eshittirib aytdi.*  
 B) *Biz bu qishloqqa ikki marta kelgan edik.*  
 C) *Kun boʻyi ishlab toliqgan Ilhomjon darrov uxlab qoldi.*  
 D) *Yarasini qandaydir dori bilan kuydiribdi.*

5. Qaysi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz koʻchma maʼnoda **qoʻllanmagan**?

- A) *Otning porlab turgan qop-qora koʻzlari qizning qalbini zavqqa toʻldirib yuborgan edi.*  
 B) *Doʻstim, biz ham Aliyevning soyasida shunaqa mansablarni egallab oʻtiribmiz.*  
 C) *Deraza oynasiga kumush yogʻdu yopirildi, osuda tun butun borliqni allalay boshladi.*  
 D) *Yosh chogʻim – oltin chogʻim, hayot tashvishlaridan xoli damlardir yoshlik.*

6. Xato yozilgan soʻzlar qatorini toping.

- A) qanoat, madad  
 B) xushmuomila, tushinmoq  
 C) muovin, maxfiy D) sharoit, taraqqiyot

7. *Togʻlar qoʻynidadir mening qishlogʻim, Choʻqqilari osha koʻrinar olam.*

Ushbu sheʼriy parchadagi kesim(lar)ni toping.

- A) qishlogʻim, olam B) osha, koʻrinar  
 C) qoʻynidadir, koʻrinar  
 D) qishlogʻim, koʻrinar

8. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bogʻliq xatolik mavjud emas?

A) *Odanda tasavvur bor, shuning uchun nimaningdir yoki kimningdir suratini xayoliga keltira oladi.*

B) *Dono boʻlmoq uchun bilimsizdan ham, oʻrganmoq kerak.*

C) *Samimiylik ham – xuddi husn va aql kabi ehson.*

D) *Ey farzand oʻzingni mol jam qilishdan gʻofil tutma, ammo halollik bilan mol toʻplashga harakat qil.*

9. Qaysi javobda payt bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

A) *hamisha, allamahol, endi*

B) *ertalab, hali, zoʻrgʻa*

C) *har gal, majburan, hanuz*

D) *jimgina, ertadan, buguncha*

10. Qaysi gapda oʻzaro maʼnodosh soʻzlar ishtirok etgan?

A) *Gunafshalar qulogʻimga madhingni*

*Soʻzlab-soʻzlab charchadilar, bitmadi.*

B) *Bolangga ham, uyingga ham qara, ham dam ol.*

C) *Quyosh chiqdi, gul yaprogʻiga Tunda qoʻngan shabnam aridi.*

D) *Qon yugurdi ol yonogʻiga, Bargi gʻubor – changdan aridi.*

## MATEMATIKA

11. Tenglamani yeching:  $\frac{7}{8-x} = \frac{10}{9+x}$


A) 1

B) 3

C) 2

D) 0

12. Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib baliq uzunligining necha foizi havoda ekanligini aniqlang.




- A) 16  
 B)  $16\frac{1}{3}$   
 C)  $16\frac{2}{3}$   
 D) 15
13. Arqon 2:3 nisbatda ikki bo'lakka bo'lindi. Kichik bo'lakning uzunligi 12 metr bo'lsa, dastlab (bo'linmagan) arqonning uzunligi necha metr bo'lgan?

- A) 36  
 B) 25  
 C) 30  
 D) 24

14. Hisoblang:  $1\frac{1}{2} \cdot 1\frac{1}{3} \cdot 1\frac{1}{4} \cdot 1\frac{1}{5} \cdot 1\frac{1}{6} \cdot 1\frac{1}{7}$

- A)  $\frac{3}{8}$   
 B)  $4\frac{1}{2}$   
 C) 4  
 D)  $3\frac{1}{2}$

15. Rasmda berilgan uchburchakning perimetrini toping.



- A) 23  
 B) 22  
 C) 21  
 D) 20

16. Oilada 4 kishi bor. Ulardan har birining tug'ilgan kunida qolganlarining har biri bittadan sovg'a berishadi. Bir yilda bu oilada (tug'ilgan kun uchun yig'ilgan) jami sovg'alar soni eng ko'pi bilan nechta bo'ladi?

- A) 4  
 B) 8  
 C) 12  
 D) 16

17. Kubning qirrasi 5 dm bo'lsa, hajmini ( $\text{dm}^3$ ) toping.

- A) 512  
 B) 1000  
 C) 729  
 D) 125

18. Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

- A)  $10 \text{ m}^2 = 10000 \text{ mm}^2$   
 B)  $10 \text{ m}^2 = 1000 \text{ dm}^2$   
 C)  $10 \text{ m}^2 = 1000 \text{ cm}^2$   
 D)  $10 \text{ m}^2 = 100 \text{ dm}^2$

19. Hisoblang:  $2 \cdot (18 - 6) + 3 \cdot (9 - 12)$

- A) 39  
 B) 15  
 C) 27  
 D) -15

20. Quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

- A)  $48 = 8 \cdot 5 + 8$
- B)  $48 = 6 \cdot 5 + 6$
- C)  $48 = 7 \cdot 5 + 6$
- D)  $48 = 6 \cdot 5 + 9$

### O'ZBEKISTON TARIXI

21. VII asrda Movarounnahrda harbiy yurishlarini boshlagan xalqlarni toping.

- A) *mo'g'ullar* B) *arablar* C) *xiyoniyalar*
- D) *qoraxitoylar*

22. 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.

- A) *Saljuqiylar davlati*
- B) *Qoraxoniylar davlati*
- C) *Somoniylar davlati*
- D) *G'aznaviylar davlati*

23. 1864-yil M.Chernyayev qaysi shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida mag'lubiyatga uchragan?

- A) *Toshkent* B) *Xiva* C) *O'ratepa*
- D) *Samarqand*

24. Quyida sanab o'tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan?**

- A) *Islom Karimov*
- B) *Inomjon Usmonxo'jayev*
- C) *Abdulla Avloniy* D) *Rafiq Nishonov*

25. O'zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.

- A) *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi*
- B) *O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi*
- C) *O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*
- D) *O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi*

26. Buxoro xonligida xon va shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar masalasi bilan qaysi mansabdagi amaldor shug'ullangan?

- A) *mehtar* B) *xon yasovuli* C) *dodxoh*
- D) *ko'kaldosh*

27. Shohruxbiy vafotidan keyin Qo'qon xonligi taxtiga o'tirgan shaxsni aniqlang.

- A) *Erdonabiy* B) *Abdurahimbiy*
- C) *Abdulkarimbiy* D) *Norbo'tabiy*

28. Shohrux 1409-yilda kimni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlagan?

- A) *Xalil Sultonni* B) *Mirzo Ulug'bekni*
- C) *Mironshohni* D) *Husayn Boyqaroni*

29. Kushon davlatida qaysi hukmdor hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston) ga ko'chirilgan?


- A) *Kanishka* B) *Kir II* C) *Demetriy*
- D) *Doro I*

30. Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?

- A) *barzikorlar* B) *vaqfchilar* C) *bevatanlar*
- D) *yarimchilar*

## BIOLOGIYA


31. Qanotlari uzun, kulrang tanali drozofilaning genotipini aniqlang.  
A)  $aaBB$  B)  $aabb$  C)  $Aabb$  D)  $AABb$
32. Erkakning otasi daltonizm bo'yicha sog', onasi esa daltonizm bilan kasallangan. Shu erkak somatik hujayrasining mitoz sikli telofazasining sitokinezidan so'ng hujayradagi  $d$  (I),  $D$  (II) allellari sonini aniqlang.  
A)  $I-2; II-2$  B)  $I-0; II-2$  C)  $I-2; II-1$   
D)  $I-1; II-0$
33. Qaysi javobda to'g'ri ma'lumot keltirilgan?  
A) *Y.Yanskiy qondagi qizil qon donachalarni birinchi marta o'rgangan.*  
B) *Mutatsiya atamasini fanga genetik olim G.De-Friz kiritgan.*  
C) *Ekosistema atamasi V.V.Dokuchayev tomonidan fanga kiritilgan.*  
D) *G.Mendel uy hayvonlarida uchraydigan virusli kasallikni o'rgangan.*
34. Normal bo'yli, sepkilsiz, silliq sochli ayol va normal bo'yli, geterozigota sepkilli, jingalak sochli erkak oilasida tug'ilgan yigit barcha belgilar bo'yicha geterozigota qizga uylangan. Natijada ushbu oilada sepkilli farzandlar tug'ildi: ulardan biri sepkillilik genini onasidan olgan, ikkinchisi esa bu genni otasidan olgan. Yuqorida keltirilgan yigit va qizning genotipini aniqlang.  
A)  $aaBbCc \times AaBbCc$  B)  $aabbcc \times aaBbcc$   
C)  $aabbCc \times AaBbCc$   
D)  $AaBbCc \times AaBbCc$
35. RNK polimeraza fermenti ta'sirida sintezlangan nuklein kislota tarkibidagi guanin nukleotidi matritsa vazifasini bajargan zanjirdagi timindan 42 taga, adenindan 10 taga kam, guanindan esa 8 taga ko'pligi aniqlandi. Agar i-RNK tarkibida 102 ta sitozi borligi ma'lum bo'lsa, DNK qo'sh zanjiri tarkibidagi sitozi nukleotidlari sonini aniqlang.  
A) 102 B) 212 C) 110 D) 272
36. Qaysi javobda ko'p hujayrali suvo't (a), prokariot organizm (b), zamburug' (c) berilgan?  
A) *a - xlamidomonada; b - qoqshol qo'zg'atuvchisi; c - vertitsill*  
B) *a - xara; b - nostok; c - zang kasalligi qo'zg'atuvchisi*  
C) *a - xlorella; b - ichburug' qo'zg'atuvchisi; c - usneya*  
D) *a - kladofora; b - nostok; c - ensefalit qo'zg'atuvchisi*
37. Dengiz tulkisining nafas olish organiga xos xususiyatlarni aniqlang.  
1) murtak varaqasining mezoderma qavatidan rivojlanadi; 2) kapillyar qon tomirlariga ega; 3) murtak varaqasining endoderma qavatidan rivojlanadi; 4) hid bilish funksiyasini bajaradi  
A) 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 4
38. Ekologik piramida qoidasiga asoslanib 70 kg o'simlikni iste'mol qilgan bizon massasi qanchaga oshganligini (kg) aniqlang. (Bizonning biomassasi o'simlikning 40 % quruq moddasi massasi hisobiga ortadi.)  
A) 42 B) 2,8 C) 4,2 D) 28
39. Genetik kod jadvalida triptofan - UGG, valin - GUU, leysin - UUA, treonin - ACC kodonlar yordamida ifodalansa, quyidagi t-RNK qaysi aminokislalani translatsiya joyiga tashib keltirishini aniqlang.



- A) valin B) leysin C) treonin  
D) triptofan

40. Qora qarag'ay va zuhrasochga xos bo'lgan umumiy tushunchalarni aniqlang.  
1) arxegoniy; 2) anteridiy; 3) urug';  
4) produtsent organizm; 5) urug'kurtak;  
6) fitosenoz vakili  
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 6

41. Quyidagi rasmda akula, ixtiozavrlar va delfin tasvirlangan. Ushbu rasimga mos keluvchi javobni aniqlang.




- A) bir sinfga mansub organizmlarda ajdod tur belgilarining tarqalishini ifodalovchi divergent evolutsiya hodisasi
- B) bir sinfga mansub organizmlarning bir yo'nalishda o'xshash belgilarni paydo qilishi
- C) bir populyatsiya doirasida bir-biridan farqlanuvchi bir nechta polimorf formalarning hosil bo'lishi
- D) umurtqalilarning turli sistematik guruhlariga mansub hayvonlarda konvergensiya hodisasi
42. Atavizm hodisasiga misol berilgan javobni aniqlang.
- A) ba'zan orqasida xira yo'l-yo'l chiziqlar bo'lgan toychalarning tug'ilishi
- B) pashshaning ikkinchi juft qanotlari
- C) otning ikkinchi va to'rtinchi barmoqlari
- D) kitning dumg'aza va orqa oyoq skeleti qoldiqlari
43. Quyida berilgan hayvonlarning biosferadagi yashash muhitini aniqlang.
- a) karakatitsa; b) zaxkash; c) ko'rsichqon
- A) a - gidrosfera; b - litosfera; c - atmosfera
- B) a - gidrosfera; b, c - litosfera
- C) a - litosfera; b, c - gidrosfera
- D) a, c - gidrosfera; b - litosfera

44. Odamda murtak varaqasining ektodermasidan rivojlanuvchi tuzilmalar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) o'mrov osti muskuli; 2) adashgan nerv; 3) o'pka arteriyasi; 4) orqa miya; 5) o'ng va chap o'pka; 6) ovqat hazm qilish bezlari; 7) uzunchoq miya; 8) ichak epiteliysi.
- A) 2, 7 B) 1, 6 C) 3, 5 D) 4, 8
45. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni belgilang.
- Bakteriofagda ... bo'ladi.
- A) RNK, g'ilof
- B) boshcha, ribosoma
- C) boshcha, mitoxondriya
- D) yoqacha, endoplazmatik to'r
46. Odamda qaysi kasallikni bakteriya keltirib chiqaradi?
- A) vilt B) gepatit C) serroz D) o'lat
47. Ituzumdoshlar oilasi (a), shuvoq turkumi (b), qizil suvo'tlar bo'limi (c), lolasimonlar sinfi (d) ga mansub o'simliklarni aniqlang.
- A) a – Oloy xiyoli, kartoshka; b – qora jusan, ermon shuvog'i; c – fillofora, nemalion; d – xolmon, tog'arpa
- B) a – mingdevona, qalampir; b – oq saksovul, qora saksovul; c – yapon laminariyasi, nemalion; d – qo'ng'irbosh, qo'shbarq piyoz
- C) a – Olga sorbariyasi, pomidor; b – qora jusan, yovshan shuvog'i; c – porfira, fillofora; d – greyg lolasi, g'umay
- D) a – qora ituzum, kartoshkagul; b – oq shuvoq, turon shuvog'i; c – ulva, nemalion; d – olg'i, nor piyoz
48. Qaysi xususiyatlar yo'sinlarning gametofiti uchun xos?
- A) Sporadan rivojlanadi, sporofit hisobiga oziqlanadi.
- B) Jinsiy bo'g'in hisoblanadi, ko'p hujayrali, poya-bargli o'simlik.
- C) Jinssiz bo'g'in hisoblanadi, shoxlangan yashil ip, mustaqil oziqlanadi.
- D) Zigotadan rivojlanadi, spora hosil qiladi.

49. O'pkadan chiqadigan havoning eng ko'p miqdori, ya'ni nafas, rezerv nafas olish va nafas chiqarish havosi birgalikda ... tashkil qiladi. Uning sig'imi odatda 3500 ml ga teng bo'ladi.

- A) o'pkaning tiriklik sig'imini
- B) qo'shimcha havoni
- C) qoldiq havoni
- D) zaxiradagi havoni

50. Quyidagi sxemada funariya yo'sinining hayot sikli ifodalangan bo'lib, X ni aniqlang.



- A) zigota
- B) sporangiy
- C) tuguncha
- D) ildizpoya

51. Moslanish shakllari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) uzoq vaqt suv ostida bo'ladigan tulenlar qonida kislorodni bog'lab olishda gemoglobindan tashqari mioglobini nisbatan ko'proq ishtirok etishi; 2) kallima kapalagining qanotlari shakli, naqsh va tomirlari bargga o'xshash bo'lishi; 3) Amerika som balig'i chavoqlari rivojlanguncha tuxumlarini qorin tomonga yopishtirgan holda yurishi

- A) 1 – fiziologik moslanish; 2 – morfologik moslanish; 3 – etologik moslanish
- B) 1 – morfologik moslanish; 2 – fiziologik moslanish; 3 – etologik moslanish
- C) 1, 3 – fiziologik moslanish; 2 – morfologik moslanish
- D) 1 – fiziologik moslanish; 2 – etologik moslanish; 3 – morfologik moslanish

52. Jadvalning qaysi qatorlarida gormonlar, ularni ishlab chiqaradigan ichki sekretsiya bezlari va gormonlar funksiyalari bir-biriga muvofiq tarzda berilgan?

№	Gormon	Ichki sekretsiya bezi	Funksiyasi
1	Insulin	Buyrak usti bezining po'stloq qismi	Oqsil va uglevod almashinuvini boshqaradi
2	Adrenalin	Buyrak usti bezining mag'iz qismi	Arterial qon bosimini tushiradi
3	Estrogen	Buyrak usti bezining po'stloq qismi	Ayollarda jinsiy bezlar funksiyasini kuchaytiradi
4	Timozin	Ayrisimon bez	Bolalarda jinsiy bezlar funksiyasini susaytiradi
5	Vazo-pressin	Epifiz	Qon tomirlarini kengaytiradi
6	Melatonin	Epifiz	Pigment almashinuvini boshqaradi

- A) 3, 4, 6
- B) 1, 2, 4
- C) 2, 3, 5
- D) 4, 5, 6

53. Jadvaldagi noma'lum X o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

Sinf	Oila	Tur
Magnoliyasimon	X	kanop
Lolasimon	piyozdoshlar	qum piyoz

- A) loladoshlar
- B) ituzumdoshlar
- C) gulxayridoshlar
- D) ra'nodoshlar

54. Shakli o'zgargan barglarni aniqlang.

- A) zirkning tikanlari; burchoqning gajaklari; kaktusning tikanlari
- B) qulupnayning jingalagi; do'lananing tikanlari; partenosisning jingalagi
- C) kaktusning tikanlari, zirkning tikanlari; bodringning gajaklari
- D) burchoqning gajaklari; bodringning gajaklari; kaktusning tikanlari

- 55.** Kuropatkada mitozning profaza (a) va korsa (b) davri uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.  
 1) ikkita sentriola hujayra qutblari tomon tarqala boshlaydi; 2) xromosoma xromatidlarini birlashtirib turuvchi belbog' uziladi;  
 3) xromatidlar mustaqil xromosomaga aylanadi; 4) xromosomalar ekvator tekisligi tomon harakatlana boshlaydi; 5) yadro shirasining yopishqoqligi kamayadi; 6) sitoplazmaning membranali qismidan yadro qobig'i hosil bo'ladi  
 A) a-1, 3; b-4, 6 B) a-1, 5; b-2, 3  
 C) a-4, 5; b-1, 3 D) a-5, 6; b-2, 4
- 56.** Qorabayir va Plimutrok zotlari uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlarni belgilang.  
 1) siydik yo'li kloakaga ochiladi; 2) oshqozoni ikki bo'lmali; 3) bosh va orqa miya rivojlangan; 4) xordalilar tipiga mansub; 5) embrioni faqat ona organizmida rivojlanadi; 6) yuragi to'rt kamerali  
 A) 1, 2, 5 B) 3, 5, 6 C) 3, 4, 6 D) 1, 2, 4
- 57.** Karam o'simligiga xos xususiyatlarni aniqlang.  
 1) hayotiy shakli jihatidan andiz bilan bir guruhga mansub; 2) bir yil ichida urug'idan unib chiqadi, o'sadi, gullaydi va meva tugib hayotini tugatadi; 3) ildizmevasi asosiy ildiz metamarfozidan shakllangan; 4) gullari murakkab soyabonda yig'ilgan; 5) gullari oddiy shingil to'pgulda joylashgan; 6) gullari uzun gulpoyada gulbandlari yordamida navbat bilan joylashgan  
 A) 1, 2 B) 3, 4 C) 4, 5 D) 5, 6
- 58.** "Biologiya" atamasini fanga kiritgan olimlarni aniqlang.  
 A) *F.Galton* B) *Ch.Darvin*  
 C) *G.R.Treviranus* va *J.B.Lamark*  
 D) *M.Shleyden* va *T.Shvann*
- 59.** Umurtqasiz (a) va umurtqali (b) konsument organizmlarni aniqlang.  
 1) termit; 2) losos; 3) martishka;  
 4) sigirquyruq; 5) sariq chayon; 6) yashil qurbaqa; 7) yashil temirchak; 8) zubr  
 A) a-5; b-2, 6 B) a-7; b-4, 8  
 C) a-1, 8; b-3, 7 D) a-3, 8; b-2, 6
- 60.** Qaysi javobda bakra baliq haqida to'g'ri ma'lumot keltirilgan?  
 A) *Jabra arteriyalaridan venoz qon qorin aortasi tomon oqadi.*  
 B) *Shartsiz reflekslari instinkt deyiladi.*  
 C) *Urg'ochilarda bir juft urug'don, erkaklarida bir juft tuxumdon bo'ladi.*  
 D) *O'q skeleti tog'aydan iborat, jabra qopqoqlari va suzgich pufagi bo'lmaydi.*




## KIMYO

61.  $Na_2SO_4$  tarkibida ion bog'lanish qaysi atomlar o'rtasida yuzaga keladi?

- A) oltingugurt va kislorod
- B) kislorod va kislorod
- C) natriy va kislorod
- D) natriy va oltingugurt

62. Quyidagi 2 ta bir-biridan mustaqil reaksiyalar zanjirlaridagi  $X_1$  oksid,  $X_2$  o'rta tuz,  $Z_3$  uglevodorod,  $Z_4$  esa molekulasida 1 ta azot atomi mavjud bo'lgan modda ekanligi ma'lum bo'lsa,  $X_1$  va  $Z_3$  moddalarning nisbiy molekulyar massalari yig'indisini aniqlang.



- A) 138
- B) 230
- C) 149
- D) 168

63. Noma'lum aldegid namunasi teng ikki qismga bo'lindi. Aldegidning birinchi qismi mis (II)-gidroksid bilan reaksiyaga kirishishi natijasida 28,8 g qizil cho'kma va ma'lum miqdorda karbon kislota hosil bo'ldi. Aldegidning ikkinchi qismi vodorod bilan qaytarilganda 12 g spirt hosil bo'ldi. Aldegiddan olingan karbon kislota va spirt o'zaro ( $H^+$  ishtirokida) reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan moddaning massasini va kimyoviy formulasini toping.

- A) 23,2 g;  $CH_3COOCH(CH_3)_2$
- B) 23,2 g;  $CH_3CH_2COOCH_2CH_2CH_3$
- C) 11,6 g;  $CH_3CH_2COOCH(CH_3)_2$
- D) 46,4 g;  $CH_3CH_2COOCH(CH_3)_2$

64. To'kilgan simobni tezda zararsizlantirishning oddiy usullaridan biri – bu simob to'kilgan joyga yod eritmasini sepish ( $2Hg + I_2 = Hg_2I_2$ ). 4,02 g simobni zararsizlantirish uchun necha gramm 5 %li yod eritmasi kerak? ( $Ar(Hg)=201$ )

- A) 25,4
- B) 2,54
- C) 101,6
- D) 50,8

65. Massasi 16,8 g bo'lgan noma'lum alken yetarli miqdordagi kaliy permanganatning suvli eritmasi bilan oksidlanganda  $1/5$  mol cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan organik moddani aniqlang.


- A)  $C_4H_8(OH)_2$
- B)  $C_3H_6(OH)_2$
- C)  $C_2H_4(OH)_2$
- D)  $C_5H_{10}(OH)_2$

66. Doimiy tok manbaiga ketma-ket ulangan  $AgNO_3$ ,  $CuSO_4$  va  $AuCl_3$  larning mo'l eritmalari orqali 300 minut davomida kuchi 5,36 A bo'lgan tok o'tkazildi. Katodlarda hosil bo'lgan metallarning massalarini (g) aniqlang (inert elektrod).
- A) 108; 32; 197/3  
B) 216; 32; 197/3  
C) 216; 64; 197  
D) 10,8; 6,4; 19,7
67. Hajmi 2 litr bo'lgan eritmadagi kationning modda miqdori 1,2 mol, anionning konsentratsiyasi esa 0,6 mol/l. Eritmaga tushirilgan lakmus indikatorini qizil rangga kirganligi ma'lum bo'lsa, eritmadagi erigan moddani aniqlang ( $\alpha_{erigan\ modda} = 100\%$ ; suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin).
- A)  $KOH$   
B)  $Na_2CO_3$   
C)  $H_2SO_4$   
D)  $HNO_3$
68. 56 g polietilen  $(-CH_2 - CH_2-)_{20000}$  necha mol?
- A)  $1 \cdot 10^{-5}$   
B)  $1 \cdot 10^{-2}$   
C)  $1 \cdot 10^{-3}$   
D)  $1 \cdot 10^{-4}$
69. 17,6 g to'yingan bir asosli karbon kislota tarkibida  $m(C + H)/m(O) = 1,75$  bo'lsa, ushbu kislota na'munasi metanol bilan to'liq ta'sirlashib ( $H^+$  ishtirokida) necha gramm murakkab efir hosil qiladi?
- A) 23,2  
B) 25,5  
C) 20,4  
D) 29,0
70.  $X_{(g)} \leftrightarrow Y_{(g)} + Z_{(g)}$  reaksiya tenglamasi bo'yicha muvozanat holatidagi X moddaning konsentratsiyasi 2 mol/l bo'lsa, X moddaning dastlabki konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang. ( $K_M = 0,5$ )
- A) 5  
B) 3  
C) 4  
D) 8

71.  $KOH$  va  $H_4P_2O_7$  reaksiyasi natijasida jami necha xil tuz hosil bo'lishi mumkin?
- A) 3  
B) 5  
C) 4  
D) 2
72. Zichliklari 0,5 g/ml va 1,5 g/ml bo'lgan eritmalar aralashtirilganda 0,7 kg ( $\rho=0,7$  g/ml) bo'lgan eritma olindi. Dastlabki eritmalar hajmini (litrlar) aniqlang (zichlik nisbiy olingan).
- A) 0,8; 0,2  
B) 0,6; 0,4  
C) 0,3; 0,7  
D) 0,5; 0,5
73. Quyidagi moddalardan qaysilarining tarkibida  $2,5 \cdot N_A$  ta kislorod atomi bo'ladi?  
1) 49 g  $H_2SO_4$ ; 2) 31,5 g  $HNO_3$ ; 3) 54 g  $N_2O_5$ ; 4) 1 mol  $HOCN$ ; 5) 27 g  $H_2O$ ; 6) 1,25 mol  $CO_2$ .
- A) 2, 5  
B) 3, 6  
C) 1, 2  
D) 1, 4
74. 0,02 mol noma'lum alkan kislorodda to'liq yondirildi. Bu jarayonda oksidlovchi qaytaruvchidan  $1 \cdot N_A$  ta elektron olgan bo'lsa, alkanni aniqlang.
- A) oktan  
B) geksan  
C) geptan  
D) pentan
75. X mol  $CaC_2$  va 4,2 mol  $Ca$  dan iborat aralashma suvga solindi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasi katalizator ishtirokida barcha gidrogenlanish reaksiyalari tugagunicha qizdirildi. Natijada noma'lum gaz va vodoroddan iborat (gazlar massalarining nisbati mos ravishda 10:1) gazlar aralashmasi hosil bo'ldi.  $CaC_2$  va  $Ca$  aralashmasining massasini (g) aniqlang.
- A) 210,7  
B) 244,8  
C) 347,2  
D) 232

76. 232 g  $AgNO_3$  eritmasi tuz tugaguncha elektroliz qilinganda eritma massasi 10 % ga kamaydi. Ajralgan gaz hajmini ( $l$ , n.sh.) aniqlang (inert elektrod).
- A) 1,12  
B) 4,48  
C) 3,36  
D) 2,24
77.  $C_nH_{2n+2}O$  formulaga mos keladigan moddalarni toping.
- A) geksanal, 3-metilpentanon-2  
B) izopropil spirt, metiletil efir  
C) *m*-krezol, benzil spirt  
D) etanal, dimetil efir
78. 50 ml propen va propan aralashmasiga 20 ml vodorod qo‘shib ma’lum sharoitda *Ni* katalizatori ustidan o‘tkazildi. Hidrogenlanish reaksiyasi to‘liq sodir bo‘lgach, gazlar aralashmasining hajmi 60 ml ni tashkil etdi. Barcha o‘lchashlar bir xil sharoitda amalga oshirilgan bo‘lsa, dastlabki alkanning hajmini (ml) toping.
- A) 30  
B) 20  
C) 34  
D) 40
79.  $Pb(NO_3)_2 \xrightarrow[t^{\circ}]{-(NO_2+O_2)} A \xrightarrow[-Pb]{+CO} B \xrightarrow{+C} Z$   
Ushbu sxemadagi *Z* moddani aniqlang.
- A)  $CO$   
B)  $CO_2$   
C)  $PbO_2$   
D)  $PbO$
80. 2,3,3-trimetilpentanni necha xil alkenni gidrogenlab olish mumkin? (alkan va alkenning asosiy zanjiridagi uglerod atomlari soni teng)
- A) 4  
B) 2  
C) 1  
D) 3

81.  $X^+$  kationidagi elektronlar soni  $Mn^{2+}$  kationidagi elektronlar sonidan 2,3 marta kam bo'lsa,  $X$  elementni aniqlang.
- A)  $K$   
 B)  $Na$   
 C)  $Cs$   
 D)  $Li$
82. Qaysi metall xlorid kislota bilan ta'sirlashganda vodorodni siqib chiqaradi?
- A)  $Zn$   
 B)  $Hg$   
 C)  $Au$   
 D)  $Ag$
83. Rasmda ko'rsatilgan  $A$  moddaning metall nitratligini bilgan holda, hosil bo'lgan  $B$  moddani aniqlang. (Moddalarning rangi va shakli tabiiy emas.)




- A) kaliy oksidi  
 B) kaliy gidroksid  
 C) kaliy nitrit  
 D) kaliy peroksid
84. Apatit, gips, marmar tarkibiga kiruvchi metallni aniqlang.
- A)  $Hg$   
 B)  $Ca$   
 C)  $Ag$   
 D)  $Au$
85. 40 g kaliy nitrat 360 g suvda eritilganda hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping.
- A) 15  
 B) 10  
 C) 5  
 D) 20

86. Metanol sanoatda is gaz va vodoroddan sintez qilib olinadi.  $2/5$  mol metanol olish uchun necha litr (n.sh.) gazlar aralashmasi reaksiyaga kirishishi kerak?

- A) 67,2
- B) 22,4
- C) 26,88
- D) 53,76

87.  $A + B \xrightarrow{t^{\circ}, Ni} X$




Berilgan reaksiyalar asosida  $B$  moddani aniqlang.

- A) metilamin
- B) metan kislota
- C) metanal
- D) metan

88.  $A$  va  $B$  atomlaridan hosil bo'lgan  $A_2B_3$  va  $A_2B_5$  birikmalaridan 0,01 moldan olinganda massalari mos ravishda 1,1 g va 1,42 g bo'lsa,  $A$  va  $B$  ning nisbiy atom massalarini aniqlang.

- A)  $A = 31$ ;  $B = 16$
- B)  $A = 62$ ;  $B = 16$
- C)  $A = 16$ ;  $B = 31$
- D)  $A = 31$ ;  $B = 32$

89. Sxemaning quyi yacheykalariga mos keluvchi qiymatlar ( $a$ ,  $b$ ,  $c$ ) to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini tanlang.



- A)  $a=6$ ;  $b=12$ ;  $c=-14$
- B)  $a=5$ ;  $b=10$ ;  $c=-6$
- C)  $a=5$ ;  $b=10$ ;  $d=-8$
- D)  $a=6$ ;  $b=12$ ;  $c=-10$

90. Jadvalning qaysi qator(lar)ida **noto'g'ri** ma'lumotlar keltirilgan?

qator	gidrolizga ta'sir etuvchi omillar	gidroliz reaksiyasini tezlashtiradi	gidroliz reaksiyasini sekinlashtiradi
1.	eritmaning konsentratsiyasi	konsentratsiyani kamaytirish ya'ni suv qo'shish	konsentratsiyani oshirish ya'ni suvni bug'latish
2.	harorat	haroratni kamaytirish	haroratni ko'tarish
3.	eritmaning muhiti	eritma muhitiga nisbatan teskari muhitga ega bo'lgan modda qo'shish	eritma muhitiga mos modda qo'shish

A) faqat 3

B) 1, 2

C) 1, 3

D) faqat 2